

FOIZ STAVKASI TUSHUNCHASI VA TURLARI

Teshaboyev Jamshidbek Qudratilayevich

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi va menejment

kafedrasi assisent o‘qituvchisi

Xalilov Anvarjon Ergashboy o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti Muhandislik

iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti

Bank ishi va audit 4-kurs talabasi

Annotation. Mazkur ilmiy maqolada foiz stavkasi tushunchasi, uning iqtisodiyotdagi o‘rni hamda foiz stavkalarining asosiy turlari keng yoritilgan. Foiz stavkasi moliyaviy bozorlarda asosiy narx ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanib, u kredit va depozit operatsiyalari, investitsion faoliyat hamda pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotga keng ko‘lamda ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada foiz stavkalarining shakllanish mexanizmi, ularning qat’iy (fiks), o‘zgaruvchan (float), oddiy va murakkab shakllari, shuningdek, nominal, real va effektiv stavkalar kabi ko‘rinishlari tahlil qilingan. Shuningdek, Markaziy bank stavkalari, bozor stavkalari va kredit/omonalarga oid foiz stavkalari o‘rtasidagi farqlar ham yoritilgan. Tadqiqot davomida foiz stavkalarining iqtisodiy agentlar faoliyatiga, ya’ni banklar, tadbirkorlar va aholi qarorlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil etildi. Foiz stavkalarining to‘g‘ri belgilanishi makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion muhit va bank tizimi samaradorligi uchun muhim omil ekani asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: Foiz stavkasi, kredit, depozit, pul-kredit siyosati.

ПОНЯТИЕ ПРОЦЕНТНЫХ СТАВОК И ИХ ВИДЫ

Аннотация. В данной научной статье подробно рассматривается понятие процентной ставки, её значение в экономике, а также основные виды процентных ставок. Процентная ставка является одним из ключевых ценовых индикаторов на финансовых рынках, оказывающим широкомасштабное влияние на кредитные и депозитные операции, инвестиционную деятельность и проведение денежно-кредитной политики. В статье исследуются механизмы формирования процентных ставок, включая фиксированные и плавающие ставки, а также простое и сложное начисление процентов. Также проведён анализ таких форм, как номинальная, реальная и эффективная процентные ставки. Особое внимание уделено различиям между ставками центрального банка, рыночными ставками и ставками по кредитам и вкладам. В ходе исследования проанализировано влияние процентных ставок на деятельность экономических агентов — банков,

предпринимателей и населения. Делается вывод о том, что правильное определение процентных ставок имеет важнейшее значение для обеспечения макроэкономической стабильности, формирования благоприятной инвестиционной среды и повышения эффективности банковской системы.

Ключевые слова: Процентная ставка, кредит, депозит, денежно-кредитная политика.

THE CONCEPT OF INTEREST RATES AND THEIR TYPES

Abstract. This scholarly article provides a comprehensive overview of the concept of interest rates, their role in the economy, and the main types of interest rates. Interest rates are among the key price indicators in financial markets, influencing credit and deposit operations, investment activities, and monetary policy, thereby exerting a broad impact on the overall economy. The article explores the mechanisms of interest rate formation, including fixed and variable rates, as well as simple and compound interest calculations. Furthermore, it analyzes different forms such as nominal, real, and effective interest rates. Distinctions between central bank policy rates, market-based rates, and those applied to credit and deposit instruments are also examined in detail. The study evaluates how interest rates affect the behavior and decision-making processes of economic agents—namely banks, entrepreneurs, and the general public. The research concludes that the accurate determination of interest rates plays a crucial role in maintaining macroeconomic stability, fostering a favorable investment environment, and ensuring the efficiency of the banking system.

Keywords: Interest rate, credit, deposit, monetary policy.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida foiz stavkasi moliya va bank tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U kredit va depozit munosabatlarining markazida turib, pul resurslarining harakati, investitsiya jarayonlari va umumiy iqtisodiy faoliyat darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aynan foiz stavkalari orqali banklar o'z kredit siyosatini shakllantiradi, Markaziy bank esa pul-kredit siyosatini yuritadi va infliyatsion jarayonlarga ta'sir qiladi. Foiz stavkasi pulning vaqt qiymatini ifodalovchi asosiy vositadir. U nafaqat qarz oluvchining xarajatini, balki investorlar va jamg'arma egalarining kutilayotgan daromadini ham belgilaydi. Shu bois, foiz stavkalari iqtisodiy agentlarning – ya'ni banklar, tadbirkorlar va aholi – moliyaviy qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada foiz stavkasi tushunchasi, uning iqtisodiy ahamiyati, shakllanish mexanizmi hamda mavjud asosiy turlari – qat'iy va o'zgaruvchan, nominal va real, oddiy va murakkab foiz stavkalari – tahlil qilinadi. Shuningdek, foiz stavkalarining bozor ishtirokchilari faoliyatiga ta'siri va ularning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni ham chuqur yoritiladi.

METODOLOGIYA. Foiz stavkasi tushunchasi va iqtisodiy mohiyati. Bozor iqtisodiyoti sharoitida foiz stavkasi – bu moliyaviy munosabatlarda muhim vosita bo‘lib, u qarzga berilgan mablag‘lar evaziga olinadigan yoki omonat sifatida qo‘yilgan mablag‘lar evaziga to‘lanadigan daromaddir. Foiz stavkasi asosan qarz mablag‘larining vaqt bo‘yicha qiymatini belgilovchi indikator sifatida qaraladi. U iqtisodiy agentlar (banklar, investorlar, tadbirkorlar, aholi)ning moliyaviy qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Foiz stavkasi – bu mablag‘ni vaqtinchalik foydalanishga berish uchun to‘lanadigan mukofotdir. U pulning hozirgi vaqtdagi qiymatini kelajakdagi qiymatga nisbatan ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki, pulning qiymati vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, ya’ni bugungi pul ertangi puldan ko‘ra qimmatroqdir.

- Foiz stavkalarining iqtisodiyotdagi roli. Foiz stavkasi pul-kredit siyosatining asosiy asbobi bo‘lib, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga, jumladan inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o‘sish sur’atlari, valyuta kurslari va moliyaviy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy bank foiz stavkasi orqali iqtisodiyotdagi pul massasini tartibga soladi. Foiz stavkasi yuqori bo‘lsa, kreditlash susayadi, iste’mol kamayadi, jamg‘armaga moyillik ortadi. Aksincha, past foiz stavkasi iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi.

Hisoblash usuli bo‘yicha:

- Oddiy (yassi) foiz stavkasi – bu asosiy summaga nisbatan aniqlanadigan doimiy miqdordagi foizdir. U asosan qisqa muddatli kreditlarda qo‘llaniladi.
- Murakkab foiz stavkasi – bu hisoblash usulida har bir davrdagi foizlar asosiy summaga qo‘shilib boradi va kelgusi davrlarda ushbu yangi summa asosida hisobkitob qilinadi. U uzoq muddatli investitsion loyihalarda keng qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar

Foiz stavkasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim moliyaviy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. U kredit va depozit munosabatlarini tartibga solish, pul resurslarini yo‘naltirish hamda iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishda asosiy indikator vazifasini bajaradi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida foiz stavkalarining darajasi banklarning kredit siyosatiga, tadbirkorlik faoliyatiga, aholi jamg‘armalariga va investitsion muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Foiz stavkasi nafaqat qarz mablag‘larining narxini, balki pulning vaqtga nisbatan qiymatini ham belgilaydi. Uning oddiy va murakkab shakllari, qat’iy va o‘zgaruvchan turlari iqtisodiy agentlar uchun turli moliyaviy natijalarni keltirib chiqaradi. Yuqori foiz stavkalari kreditlashni cheklab, jamg‘armani rag‘batlantirsa, past foiz stavkalari iqtisodiy faollikni oshiradi. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan belgilanuvchi asosiy stavka orqali mamlakatdagi umumiyl pul-kredit siyosati yo‘naltiriladi. Ushbu mexanizm inflyatsiyani nazorat qilish, pul massasini muvozanatlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shunday qilib, foiz stavkalari nafaqat moliyaviy

barqarorlikni, balki butun iqtisodiy tizimning muvozanatli rivojlanishini ta'minlovchi vosita hisoblanadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti – www.cbu.uz
2. Xodjaev, A.A. "Bank ishi va uning asoslari", Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
3. Moliya va kredit: o'quv qo'llanma / Tahrir hay'ati rahbari: M. Mullajanov – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2021.
4. Mishkin, Frederic S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. Pearson Education, 2019.
5. Saunders, A., & Cornett, M. M. *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach*. McGraw-Hill, 2021.
6. Zaynudinov, Sh. "Pul va banklar", Toshkent moliya instituti nashriyoti, 2019.
7. Krugman, P., & Wells, R. *Macroeconomics*. Worth Publishers, 2018.